



Yoshlar ishtiroki

To'g'ri Boshqaruv bo'yicha Global Partnerlar Jamg'armasining (GPGF) "Parlamentlar uchun qo'llanmasining" 13-soni butun dunyo parlamentlariga oid bo'lgan asosiy jarayonlar va ularning vazifalariga bag'ishlangan. Ushbu son parlamentni samarasini kuchaytirishga qaratilgan loyihalarini amalga oshirish uchun fikr va mulohazalarni taqdim etadi.

Ushbu qo'llanma parlamentlarning yosh fuqarolar bilan ishlash jarayonidagi rolini ko'rib chiqadi. Parlamentlar qonunlarni qabul qiladi, elektoratni taqdim etadi va o'z hukumatlarini javobgarlikka jalb etadi. Ular bajarayotgan ishlar barcha odamlar uchun, lekin eng birinchi navbatda yoshlar uchun muhimdir. Ushbu qo'llanmaning vazifasi, saylangan vakillarni nima uchun ular yoshlar bilan ishlashlari kerakligini tushuntirish emas, balki ular yoshlarning demokratik ishtirokini oshirish uchun o'zlarining yosh fuqarolari bilan aloqalarini qanday o'rnatishi kerakligini ko'rsatish.

1. Yoshlar ishtiroki

Garchi yoshlar ishtirokining yagona ta'rifi bo'lmasa-da, u odatda yoshlarning faol ishtiroki va yoshlarning turli masalalar haqida fikrini nazarda tutadi; va bu muammolar nafaqat ularga, balki ularning atrofidagi jamoalariga va butun dunyoga tegishli. Yoshlar tajribasi va istiqbollari ularning yoshi bilan belgilanadi, biroq har bir deputat barcha manfaatdor taraflarni ovozlarini inobaga olish foydali ekanligiga, barcha ovozlar hayotiy ahamiyatga ega ekanligiga imoni komil bo'lishi mumkin – yoshlar ham odamlar, faqat yosh holos.

Yoshlar o'zlari uchun xos bo'lgan istiqbollarni olib kelishga qodir. Yoshlarni fikrini inobatga olmaslik parlamentda

ko'rib chiqilayotgan har qanday masalaga noto'g'ri yechim berilishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, bu muammolar yoshlarga eng ko'p ta'sir qilayotgan bo'lsa, masalan ta'lim sohasi yoki yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasi.

Masalan, ta'lim tizimini oling: yoshlar o'zlarining ta'lim sohasidagi tajribalari bilan hayotiy istiqbollarni berishlari mumkin. Shunday qilib, ular qonunchilikni to'liq tushunmasalar-da, hech bir shubhasiz ta'lim sohasidagi qonunlar qanchalik samarali amalga oshirilayotganligi to'g'risida ma'lumot berishlari mumkin. Chunki bu qonunlar ularga har doim ta'sir qilib keladi. Ularning fikr va mulohazalari siyosat va qonunchilik sifatini oshirishi mumkin.

Konstruktiv va ramziy ishtirok

Har qanday ishtirok etishning boshida beriladigan eng muhim savollaridan biri – "Nima maqsadda?" bo'lishi kerak. "Nima maqsadda?" degan savol umuman biron bir ish faoliyatni bajarish kerakligi uchun emas, balki ishning maqsadini tushunish uchun berilishi lozim. Ushbu savolning javobi tegishli ishtirok etishning konstruktiv yoki faqat ramziy ahamiyatga ega bo'lganligini aniqlashga imkon beradi.

Tokenistik (ramziy) ishtirok etish – bunda odamlarni namoyish uchun ishtirok etishga taklif qilinadi, va bunday namoyishlarga qatnashish qarorlar qabul qilish jarayoniga yoki o'zgarishlarni yaratishga qanday ta'sir qilishi mumkinligi to'g'risida aniq fikr yuritilmagan bo'ladi. Ramziy ishtirok etish ko'pincha suratga olish va reklama qilishdan boshqa narsaga yaramaydi.

Konstruktiv ishtirok etish - bunda qatnashuvchining ishtirok etishdan aniq

Mundarija

1. Yoshlar ishtiroki	1
2. Qulay muhitni yaratish	2
3. Munozarada hammaning ishtiroki	3
4. Hamkorlik	4
<i>Amaliyotdan misol: yosh parlament a'zolari dasturi, Bahrayn</i>	5
<i>Amaliyotdan misol: Shotlandiya yoshlar parlamenti</i>	6
<i>Amaliyotdan misol: yoshlar saralash qo'mitasi</i>	7
5. Ta'lim va targ'ibot xizmatlari	7
<i>Amaliyotdan misol: Buyuk Britaniya parlamentining ta'lim markazi</i>	8
<i>Amaliyotdan misol: Buyuk Britaniyaning Parlament haftaligi</i>	9
6. Rejani tuzish	9
7. Xulosa	11

maqsadi bo'ladi, ya'ni undan olgan bilim va tajribalarni keyinchalik bahs-munozara yoki qarorlar qabul qilishda foydalanishni niyat qilinadi. Bundan tashqari ishtirokchilarning bu ishtiroki qanday maqsadlarda ishlatilishi mumkinligidan xabardor bo'lishadi hamda ular keyingi qo'yiladigan qadamlari to'g'risida ma'lumot olib turishadi. Ular shuningdek, qulay muhitda ishtirok etishlari uchun barcha sharoitlar qilinib beriladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ramziy ishtirok etish 1 soat davom etsa, konstruktiv esa 15 daqiqa davom etadi. Lekin ular orasidagi farq aslida ular ko'rsatgan natijadir, ya'ni ishtirok etgandan keyin nima sodir bo'lishida. Konstruktiv ishtirok etish ishonchni kuchaytiradi, chunki yoshlar o'z fikrlarini erkin bayon qila olish imkoniyatiga ega bo'lishadi; ular buni hayotda demokratik boshqaruv jamiyatida ko'rishadi. ramziy qatnashuvlar aslida ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

2. Qulay muhitni yaratish

Qulay muhit konsepsiyasi aslida insonlarning hayotlariga ta'sir etuvchi qarorlar va ularni tashvishga solayotgan muammolarida to'liq ishtirok etishlarini kafolatlovchi muhit yaratish mumkin degan fikrga asoslanadi. Yoshlarni jalb qilish uchun yaratilgan qulay muhit qaror qabul qiluvchilarni, qonunlarni, boshqaruv tuzilmalarini va resurslarni o'z ichiga oladi (lekin ular bilan cheklanmaydi), ular yoshlarning qadr-qimmatini va o'z ovozlari ega bo'lishlarini qo'llab-quvatlash uchun birlashadilar.

Qulay muhit - bu ham yoshlarning, ham parlament a'zolarining ishonchlarini mustahkamlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan vositadir. Parlament a'zolari bunda juda muhim ro'l o'ynaydi, chunki ular bo'sh ish o'rinlarini yaratadilar va imkoniyatlarni kengaytiradilar.

Qanday qilib qulay muhit yaratish mumkin?

Tajribaga asoslanib, qulay muhitning to'rtta tarkibiy qismini ajratish mumkin: xabardorlik, siyosiy iroda, strategiya va resurslar.

Habardorlik

Ushbu komponent muhim ahamiyatga ega tartibda ro'yxatga olinmagan bo'lsa-da, xabardorlik qulay muhitni yaratish uchun zarur bo'lgan birinchi narsa. Parlament a'zolari quyidagilarni bilishlari kerak:

- Yoshlar qatlami mavjud: ular ovoz berish huquqiga ega bo'lmasa-da, saylagan vakillar vakillik qilishi kerak bo'lgan saylovchilar qatoriga kiradi. Shuning uchun, ular ham amalga oshirilishi kerak bo'lgan har qanday qarorlardan manfaatdor tomonlardir.
- Yoshlarning ovozi bor: garchi ularga hech qachon fikr bildirish imkoniyati berilmagan bo'lsa-da, har bir fuqaro - shu qatorda yoshlar ham, o'zlarini qiziqtirgan masalalar to'g'risida ma'lumot beruvchi g'oya, istiqbol, va tajribasiga ega. Oddiy "Siz uchun nima muhim?" degan savol orqali yoshlarning parlamentdagi ishtirokini ta'minlash mumkin.
- Yoshlar ishtirokida boshqa manfaatdor tomonlar bor: maktablar, ota-onalar va yoshlar bilan ish olib boruvchi amaliyotchilar. Ular yoshlar bilan ishlash va ular bilan muloqot qilish bo'yicha bevosita tajribaga ega, shuning uchun yoshlar bilan har qanday muloqot ushbu guruhlarni ham hisobga olishi kerak.

Siyosiy iroda

Qulay muhitni yaratish va saqlash uchun siyosiy iroda muhim ahamiyatga ega. Agar qaror qabul qiluvchilar va saylangan vakillarning yoshlar bilan ishlash istagi bo'lmasa, yoshlarning ishtirogi amalga oshmaydi. Shuni e'tirof etish kerakki, yoshlar ularni qiziqtirgan masalalar bo'yicha jamiyat uchun ayniqsa qadri bo'lgan ovoz va g'oyalarga ega. Yana bir narsani tan olish kerak: yoshlarni jalb qilish nafaqat "yoqimli narsa". Maqsad ishtirokning o'zida emas. Maqsad - siyosiy munozaralarda hayotiy tajribalar va qimmatli istiqbollardan foydalanish va natijada qonunchilik va nazorat sifatini oshirishdir.



Strategiya

Qulay muhitni yaratish va saqlash uning qanday ishlashini belgilaydigan strategiyaga ega bo'lishiga bog'liq. Bu biroz mulohaza

qilishni talab qiladi. Yoshlar ishtirokini mazmunli qilish uchun qaror qabul qiluvchilar yoshlar bilan qanday qilib samarali aloqada bo'lishlari va yoshlarning mazmunli ishtirok etishlari uchun qanday imkoniyatlar mavjudligini bilishi kerak. Agar ishtirok etish uchun imkoniyatlar mavjud bo'lmasa, yoshlarning qaror qabul qilishga ta'siri bo'lish uchun qadav chora ko'rish kerak?

Manbalar

Qulay muhit yaratish uchun maxsus manbalar zarur. Pul/ byudjet va odamlar eng muhim manbalardir. Byudjet ajratish, bu yoshlarni jalb qilish uchun xarajat va pul kerakligini hisobga olinganligini anglatadi. Qulay muhit standart sifatida ma'muriy va moddiy-texnik yordamni talab qiladi va bu katta xarajaddir. O'zini bag'ishlagan odamlar (parlament vakillari/ ma'murlari va yoshlar bilan ishlaydigan amaliyotchilar - yoshlar tarbiyachilari, o'qituvchilar va boshqalar bu bo'shliqni bartaraf etishda muhim manbalardir. Ular yoshlarga bilan samarali ish olib borib, qaror qabul qilishda ishtirok etishlariga yordam berishlari mumkin. Shuningdek, ular kerakli ma'muriy, moddiy-texnik va axborot ta'minotini taqdim etishlari mumkin.

Yaxshi natijalarga erishish

Ishtirok etishning mazmunli bo'lishining asosiy mezonlari bu natija. Xabardorlik, siyosiy iroda, strategiya va resurslar qulay muhit yaratishi mumkin, ammo biz buni faqat erishilgan natija orqali bilib olamiz: yoshlarga ishtirok etish imkoniyati haqiqatan ham berilganmi. "Nima o'zgaradi?" degan savol yoshlar ishtirok etganda doimiy ravishda berilishi kerak, masalan:

- Agar ular parlamentga kelishsa nima o'zgaradi?
- Agar ular munozarada qatnashish imkoniga ega bo'lishsa nima o'zgaradi?
- Agar ular deputati bilan gaplashsa nima nima o'zgaradi?
- Agar ular biron bir tadbirda qatnashish imkoniga ega bo'lishgan bo'lsa nima o'zgaradi?
- Agar ular fikrlarini bildirishga taklif qilinsachi?

Agar bu yaxshi natijalarga olib kelmasa, yoshlarni jalb qilishning foydasi nima? Agar ular ishtiroki natijasi haqida sharhlar orqali va bundan keyin nima bo'lishini aloqada qolish orqali bilib olish imkoniyatiga ega bo'lmasa bunday ishtirokdan nima foyda bor?

Odamlar fikrlari inobatga olinayotganligini his qilishlari kerak, hatto ularning fikri oxir-oqibat ahamiyatsiz bo'lsa ham. Har ikki tomonning hamjihatligini baholash har doim foydalidir: yoshlarni baholash orqali o'z fikrlari bilan o'rtoqlashishga taklif qilish kerak.

3. Munozarada hammaning ishtiroki

Yoshlarning hammasi bir xil emas!

Yana takrorlayman: yoshlar bir hil guruh emas. Ushbu demografik guruh (yoshlarning yoshiga qarab guruhlash) - kelib chiqishi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, bandligi, ma'lumot darajasi va boshqa sifatlariga ega. Shuning uchun ularning tajribasi va dunyo qarashi ular qaysi guruhga tegishiligidan bog'liq. Barcha fikrlarni inobatga olish zarur. Barcha fikrlar qimmatlidir. Muammo farqlar mavjudligida emas, balki garchi farqlar sezilsa ham, yoshlarni ko'pincha bitta guruh deb atashlarida. Barcha yoshlar ishtirok etish uchun bir xil imkoniyatga ega bo'lishlari kerak, shunda ularning hammasi munozarada ishtirok etishi mumkin.

Yoshlarning turli dunyo qarashlari ularning parlamentda ishtirok etishida muhim rol o'ynaydi. Buni bilmaslik yoki tan olmaslik qaysidir guruhni ishtirok etishdan chetlashtirishga va yoshlar ishtirokining haqiqiy representativ bo'lmasligiga olib keladi. Misol uchun, tilni oling: agar imkoniyatlar faqat ingliz tilida mavjud bo'lsa, u avtomatik ravishda yoshlarning muayyan guruhlari ishtirok etishdan chetlaydi. Ularning fikrlari e'tiborga loyiq emasligidan emas, balki bu tilda muloqot qila olmasligi sababli. Yoki ijtimoiy-iqtisodiy maqomni oling: agar ishtirok etish imkoniyati transport xarajatlari bilan bog'liq bo'lsa, daromadga ega bo'lmagan har qanday shaxs ishtirok eta olmaydi. Ushbu har ikki misolda bitta xavf bor – qaror qabul qiluvchi shaxslar yoshlarni jalb etishga erishdik deb hato o'ylashadi va yolg'onakam ishonch hosil qilishadi garchi faqat bir guruhni jalb qilgan bo'lsalar ham. Agar ayrim odamlar munozarada ishtirok etolmasa yoki ba'zi sabablar orqali chetlatilsa, natija faqat ishtirok etgan shaxslarning fikrini aks ettirganligini ta'kidlash lozim.

Barcha farqlarni inobatga olgan ravishda, **hamma guruhlarni jalb qilishga erishish uchun imkoniyat yoki usul mavjud emas.** Shuni ham ta'kidlash kerakki, ayrim guruhlarga erishish boshqalarga qaraganda

qiyinroq. Ushbu haqiqatni tan olgan holda guruhlarni reprezentativligiga erishish lozim - har bir guruhning vakilli bo'lishini ta'minlash zarur. Parlament a'zolari har xil fikrlarni va dunyo qarashlarni inobatga olishga intilishlari kerak (agar faqat ma'lum bir guruhga ta'sir qiladigan muammo bo'lmasa).

Parlament a'zolari o'zlarining vazifalari doirasida o'zlarining saylov okruglaridagi yoshlar kimligini, qayerda ekanliklarini va hozirda qanday ish bilan mashg'ul bo'lishini aniqlab olishi kerak (quyidagini ko'rib chiqing).

Imkoniyatlarga ega bo'lish

Hamma imkoniyatlar hamma yoshlar uchun ham mavjud emas, va hamma yoshlarni bir xil yo'l bilan jalb qilish mumkin emas. Har qanday ham jamiyatdagi yoshlarning demografik ko'rsatkichlariga qarab ularning ishtirok etishlari uchun qanday asosli o'zgarishlar talab qilinishi haqida o'ylab ko'rish kerak. Siz foydalanayotgan tilni hammabopmi? Ma'lumot rasmiy tilda yoki oddiy tilda yozilganmi? Ishtirok etish imkoniyatlari haqida qanday xabar qilinadi? Ular maktablarda tarqatiladimi? Ijtimoiy tarmoqlardami? Jamoat guruhlar orasidami? Ular eng qimmatbaho tajribaga ega bo'lishi mumkin bo'lganlarni nishonga oladimi? Imkoniyatlarni hisobga olish, vakillarning haqiqiy ishtirokini ta'minlash uchun muhimdir.

Munozarada hamma ishtirok etishiga ishonch hosil qilishning mukammal usuli yo'q. Vakil ishtirok etishiga yordam beradigan savollarga quyidagilar kiradi:

- Qaysi guruhlarni jalb qilmoqchimiz?
- Ular ishtirok etish uchun qanday imkoniyatlarga ega?
- Barcha guruhlarning imkoniyatlari va ishtirok etish huquqlari tengmi?
- Kimni ishtirok etish imkoni yo'q va buni o'zgartirish uchun nima qilishimiz kerak?
- Munozarada doimiy ravishda kimlar ishtirok etadi?
- Kimlar (qaysi guruhlar) munozarada deyarli ishtirok etmaydilar yoki etmaganlar?
- Ko'proq odamlarni munozaraga jalb qilish uchun nima qilishimiz kerak?
- Odamlarning oldiga borishimiz kerakmi yoki ular bizga murojaat qilishlari kerakmi? (Ishtirok etish kam bo'lgan yoki umuman bo'lmagan hollarda, parlament a'zolari yoshlarni parlamentda ishtirok etishga taklif qilishdan oldin o'z saylov okruglaridagi yoshlar bilan uchrashish haqida o'ylab ko'rish mumkin).

4. Hamkorlik

Parlamentlar va mamlakat yoshlari o'rtasidagi o'zaro muloqot qilish uchun turki ikki tomondan - parlamentlar hamda yoshlarning o'zlaridan ham chiqishi kerak. Hamkorlikning samarali usullarini va ikki tomonni bir biri bilan aloqaga chiqish yo'llarini topish mushkul ishdir.

Parlamentlar va siyosiy institutlar uchun yoshlar bilan hamkorlik qilish uchun asosiy mezon yoshlarning kelajakdagi saylovchilar ekanligini e'tirof etishdan iborat. Bundan tashqari deputatlarning o'zi ham mustaqil ravishda o'z saylov okruglaridagi yoshlar va maktablar bilan aloqa o'rnatib, o'zi va o'z siyosiy partiyasi haqida qulay shaxsiy taassurot yaratishga intiladi.

Deputatlar: xabardorlikni oshirish

Yoshlar bilan aloqalar mavjud bo'lmagan joyda, parlament a'zolari o'z saylov uchastkalari haqida ma'lumot yig'ish orqali yoshlarning xabardorligini oshirishi mumkin. Bu quyidagilar orqali amalga oshirilishi mumkin:

Manfaatdor tomonlarni aniqlash -

parlament a'zolari va ularning xodimlari yoshlar qayerda ekanini aniqlash uchun axborot yig'ish ishlarini amalga oshirish mumkin. Buning maqsadi saylov okrugidagi maktablarni, yoshlar bilan ishlaydigan fuqarolik jamiyati tashkilotlarini va saylov okrugidagi yoshlar bilan aloqada bo'lgan barcha shaxslarni aniqlashdan iborat.

Ma'lumot yig'ish - Parlament a'zolari yoshlarni tashvishga solayotgan masalalar to'g'risida ma'lumot olish uchun yoshlar allaqachon faol bo'lgan joylarga yoki yoshlar bilan ishlaydigan tashkilotlarga borishi mumkin. Quyidagi savollarni berish lozim: **Hozirda parlament a'zolariga ularning saylov okruglarida nima yuz berayotganligi haqida axborot berish uchun qanday manbalar bor? Ular vakillik qilgan yoshlarni qaysi masalalar tashvishga solmoqda?**

Qo'mitalar va munozaralar

Parlament qo'mitalari jamoatchilikni olib borilayotgan tekshiruvlar to'g'risida o'z fikrlarini baham ko'rishga taklif qiladi, asosan, dalillarni taqdim etish orqali. Aynan yoshlarni jalb qilish uchun maxsus harakatlar qilish kerak bo'ladi, chunki ularning rasmiy aloqa kanallarini kuzatib borish imkoniyatlari yo'q. Yoshlar ishtiroki uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida qo'mita yoshlar guruhlari

bilan **uchrashishlar va davra suhbatlari yoki seminarlar** o'tkazishi mumkin. Shu tarzda ular yoshlar tajribasini tushunishi yoki muayyan siyosat masalalari bo'yicha ularning fikrlarini olishi uchun imkoniyat tug'iladi.

Qo'mitalar shuningdek o'z **so'rovlari va so'rovnomalari**ni o'tkazishlari mumkin. Masalan, Buyuk Britaniya parlamentida Petitsiyalar qo'mitasi 7 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida supermarketlarda plastmassadan foydalanish to'g'risida suhbat o'tkazdi va natijalar keyingi debatlarida qayd etildi. Fokus – guruhlar, shuningdek, fuqarolar yig'ilishlari yoshlarni tashvishga soluvchi muammolarni hal etish uchun imkoniyat yaratishi mumkin.

Qo'mitalar hukumat vazirlariga taqdim etish uchun masalalar bo'yicha takliflarni olish uchun ham ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Shuningdek, yoshlarni parlamentdagi haqiqiy debatlariga bag'ishlangan onlayn "parallel debatlarini" o'tkazishga rag'batlantirish uchun xeshtegalar qo'llanib kelmoqda.

Yoshlarning fikri qaysi usul orqali olinishidan qat'iy nazar, olingan fikr-mulohazalarni amaliyotda qo'llash va ular bilan ishlash juda muhimdir. Agar olingan fikrlar keyinchalik qayd etilmasa yoki siyosiy muhokamaga biron bir tarzda kiritilmasa, tashabbus qarama-qarshi oqibatlariga olib kelishi mumkin. Agar qarashlar izlanib, keyin ularga e'tibor berilmasa, bu ishda ishtirok etgan yoshlar haqli ravishda norozilikni his qilishlari, parlamentning obro'siga putur yetkazishi va bu ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Fuqarolik jamiyati tashabbuslari

Hamkorlik qilish istagi faqat parlament tomonidan paydo bo'lmaydi. Yoshlarning o'zlari siyosiy muloqotda ishtirok etishi uchun yoshlar guruhleri va fuqarolik jamiyatining boshqa tashkilotlari orqali kampaniyalar olib bormoqda. Yoshlar parlament jarayonlariga qiziqishlarini yoki e'tiborini bildirmasligi mumkin, biroq ular siyosatchilar ularning muammolarini va qiziqtirgan masalalarini tushunishlarini istaydi. Ko'plab mamlakatlarda fuqarolik jamiyatining faol yoshlar kengashlari va yoshlar guruhleri faoliyat ko'rsatmoqda. Britaniya yoshlar kengashi, masalan, ko'plab dasturlar o'tkazmoqda, jumladan, yoshlar fikrlarini aniqlash uchun har yili saylov

o'tkazish - "Make Your Mark" saylovi. 2018 va 2019 yillarda unda 1 milliondan ortiq yoshlar ishtirok etdi.

Yoshlar kengashlari va boshqa yoshlar tashkilotlari yoshlar bilan birgalikda quyidagi ishlarni olib boradilar:

- yoshlarni eng ko'p tashvishlantiradigan muammolarni aniqlash
- kampaniyalarni o'tkazish va manfaatlarni himoya qilish bo'yicha ko'nikmalarini o'rgatish
- tarmoqlar yaratish
- qaror qabul qilishda ularning fikrlari inobatga olinishi uchun imkoniyatlarni aniqlash
- munozarada hammani ishtirokni ta'minlash va turli guruhlar va jamoalarning fikrlarini o'rganish
- qaror qabul qilishda ishtirok etish
- yoshlarning hayotini yaxshilash

Ko'pgina parlamentlarda fuqarolik jamiyati guruhleri va tarmoqlari bilan aloqalarni o'rnatish vazifasi yuklangan axborot xizmatlari mavjud. Hamkorlikning natijasi yahshiligi - yoshlarning ovozlari qaror qabul qiluvchilar tomonidan eshitilganda va inobatga olinganda, yoshlarning siyosiy ishtiroki haqiqiy muammolarni hal qilishda yordam bergandadir. Shunda yoshlarning fikrlari va qarashlari haqiqiy o'zgarishlarga olib keladi.

Amaliyotdan misol: yosh parlament a'zolari dasturi, Bahrayn

Bahrayn yoshlari (erkaklar va ayollar) ijtimoiy tarmoqlarda ijtimoiy masalalar, ish va bandlik muammolari, imkoniyatlar va boshqa mavzularni muhokama qiladilar. Biroq, ularning fikrlari va taklif qilgan tavsiyalari ko'pincha qaror qabul qiluvchilarga yetib bormaydi, chunki ular tegishli rasmiy kanallar orqali o'tmaydi. Yosh parlament a'zolari dasturi Bahraynda yoshlar muloqotini, ijtimoiy inkluzivlikni va parlamentda qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishni rag'batlantirish uchun platformadir.

Yosh parlament a'zolari uchun dastur [Yoshlar kashshof jamiyati](#) tomonidan amalga oshiriladi. Ularning maqsadi demokratik qadriyatlar va fuqarolar huquqlari to'g'risida xabardorlikni oshirish uchun turli jamoalardan erkaklar va ayollar kabi ko'plab yoshlarni qamrab olishdir. Maqsad,

Bahrayn yoshlariga jamoatlariga ijobiy va konstruktiv hissalarini qo'shish uchun kerakli ko'nikmalarni berishdir. jamiyatlari ijobiy va konstruktiv qilishdur. Dastur belgilangan maqsadlarga erishish uchun tizimli yondashuvni ta'minlash uchun quyidagilar mo'ljallangan:

- birinchidan, barcha yoshlar o'z jamoalarida va demokratik jarayonda muhim rol o'ynash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish va takomillashtirish orqali;
- ikkinchidan, deputatlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha amaliy tadbirlar o'tkazish yo'li bilan.

Strategik hamkorlar ko'magida yosh parlamentariylarning yillik dasturi 250 dan ortiq ishtirokchilarga taqdim etildi.

Asosiy yutuqlarga quyidagilar kiradi:

- Talabalar uchun kredit jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi taklif (parlament raisining birinchi o'rinbosari tomonidan qabul qilingan).
- Ko'ngillilar ishini tashkil etish va o'qitish imkoniyatlarini ta'minlash uchun ko'ngillilar markazini tashkil etish.
- Arab Ligasi Yoshlar Sammitda vakil ishtirokchilar
- Bahraynda dastur bitiruvchilari boshchiligida tashkil etilgan bir qator yangi nodavlat notijorat tashkilotlar

[Yosh parlament a'zolari dasturi to'g'risida maqola](#)

Parallel siyosiy tuzilmalar

Siyosiy tuzilmalarning yoshlik versiyalarini nusxa qilib ko'chirgan ko'plab tashabbuslar mavjud, masalan:

- Yoshlar parlamentlari
- Yoshlar parlament qo'mitalari
- Yosh hokimlar

Ko'pincha ular parlament/mahalliy kengashlar va fuqarolik jamiyatining yoshlar guruhlarini o'rtasidagi hamkorlik natijasida hosil bo'ladi. BMTning model parlamenti kabi xalqaro misollar ham mavjud.

Amaliyotdan misol: Shotlandiya yoshlar parlamenti

Shotlandiya yoshlar parlamenti (SYP) 1999 yilda tashkil etilgan

yoshlar tomonidan boshqariladigan tashkilotdir. U Shotlandiya parlamenti va Shotlandiya hukumatidan mustaqil hisoblanadi, lekin hukumat tomonidan uch yillik moliyalashtirish tsikli doirasida moliyalashtiriladi.

Shotlandiya Yoshlar Parlamentiga (SYP) 14 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan 160 a'zo kiradi. Elektorat — 12 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan yoshlardan ibratdir.

Saylov mahalliy kengashlar tomonidan SYP xodimlari rahnamoligida tashkil etiladi. Hamdardlik kengashi — shuningdek, doimiy shtat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan yoshlardir. Shotlandiyada yoshlar xodimlari, mahalliy kengashlar va yoshlar tashkilotlari tarmog'i tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlash mavjud.

Shotlandiya yoshlar parlamentining uchta uchrashuvi har yili Shotlandiya bo'ylab, shu jumladan Shotlandiya parlamentida o'tkaziladi. SYP ko'pincha Shotlandiya parlamenti qo'mitalariga guvohlik beradi va siyosatni takomillashtirish bo'yicha hukumat vazirliklari bilan ishlaydi. Yilda bir marta Shotlandiya hukumati idorasi va Shotlandiya yoshlar parlamenti vakillari o'rtasida so'nggi uchrashuvdan beri erishilgan yutuqlarni ko'rib chiqish va siyosatning ustuvor yo'nalishlarini muhokama qilish uchun uchrashuv bo'lib o'tadi. Ularning kampaniyasi Shotlandiyada yashovchi yoshlarning huquqlarini qo'llab-quvvatlash, hurmat qilish va mamlakatdagi qaror qabul qiluvchilar tomonidan hisobga olish uchun siyosatga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi haqidagi misollar mavjud. Birlashgan Millatlar tashkilotining Bola huquqlari to'g'risida konvensiyasini 2021-gacha Shotlandiya qonuniga to'liq kiritish majburiyatini muvaffaqiyatli qo'lga kiritdi.

SYP-bu kampaniyalarni amalga oshiruvchi tashkilotdir: bu, birinchi navbatda, yoshlarning ovozlarini Shotlandiya siyosatida eshitishlarini ta'minlashning bir usuli. Shotlandiya parlamenti va Shotlandiya hukumati SYPni taqdim etadigan maslahat funksiyasi uchun qadrlaydi.

Shunday qilib, SYPning afzalliklari nafaqat yoshlar va ular tajribasidan olingan narsalar, balki Shotlandiya parlamenti va Shotlandiya hukumati tomonidan ham ijobiy siyosatni shakllantirishga yordam berish uchun manfaatdor yoshlarning tayyor guruhiga murojaat qilishlari mumkinligidir. Shotlandiya yoshlar parlamenti, shuningdek, yoshlarning fikriga qiziqqan va o'z loyihalariga jalb qilishni hohlaydigan boshqa tashkilotlardan buyurtmalar qabul qiladi.

Shotlandiya yoshlar parlamenti yoshlarning mazmunli ishtirokining yaxshi namunasidir.



Amaliyotdan misol: yoshlar saralash qo'mitasi

Yoshlar saralash qo'mitasi (YSQ) Buyuk Britaniya milliy yoshlar kengashi (Britaniya yoshlar kengashi) tomonidan muvofiqlashtirilgan va Buyuk Britaniya parlamenti tomonidan qo'llab - quvvatlangan har yillik tashabbusdir.

Qo'mita buyuk Britaniya parlamentining muntazam qo'mitasi vazifasini bajaradi. U tergovni olib boradi va natijalarni hisobotda e'lon qiladi va Buyuk Britaniya hukumati tomonidan rasmiy javob oladi. Asosiy farq-tadqiqot mavzusi qanday tanlanganligi va qo'mitaga kim kirishidadir.

So'rov mavzusi odatda Buyuk Britaniya yoshlar parlamentining Make Your Mark** byulletenida aniqlangan ustuvor masalalardan tanlanadi, chunki u qo'mitaga boshqa yoshlar tomonidan mandat beradi.

Britaniya yoshlar parlamenti a'zolari 11 yoshdan 18 yoshgacha bo'lib, ular orasida Buyuk Britaniyaning mahalliy yoshlar kengashlari, yoshlar masalalari

bo'yicha maslahatchilari, saylangan yosh hokimlar, mavzuga alohida qiziqish bildirgan yoshlar kiradi. Shotlandiya, Shimoliy Irlandiya va Uelsdan kelgan yoshlar Buyuk Britaniyada vakillik qilishni ta'minlaydilar. Ularning iltimosiga binoan qo'mita tavsiyalar berib hisobot tuzadi va davlat ushbu hisobotga javob beradi.

Yoshlar saralash qo'mitasi 2012 yilda tashkil etilgandan beri transport, ruhiy salomatlik, irqiy va diniy kamsitish va yoshlar o'rtasida jiddiy zo'ravonlik kabi masalalarni ko'rib chiqqan. 2019-yilda yoshlar o'rtasida jiddiy zo'ravonlik masalasi bo'yicha yoshlar saralash qo'mitasining tergov natijasida ular Buyuk Britaniya bosh vaziri bilan birgalikda yoshlarning ovozlari eshutilishini ta'minlash uchun ishlashga taklif qilindi.

Yoshlar Saralash Qo'mitasi Parlamentda yoshlarning mazmunli ishtirok etishining yaxshi namunasidir.

** Make Your Mark - bu har yili Buyuk Britaniyada o'tadigan saylov bo'lib, unda 11-18 yoshdagi yoshlar o'zlarining eng muhim milliy va mustaqil masalalari bo'yicha ovoz berishi mumkin. Yillik anjumaning yangilangan manifestidan ustuvor o'rin egallagan o'nta masala byulleten hujjatiga asos bo'lib xizmat qiladi. 2018 yilda Buyuk Britaniyada 1,1 milliondan ortiq yoshlar MYMda ovoz berishdi - bu Buyuk Britaniyadagi har 6 yoshdan 1 nafari. Buyuk Britaniya Yoshlar Parlamenti a'zolari o'z okruglaridagi yoshlarni ovoz berishga undaydilar - 2017 yilda bitta Buyuk Britaniya Yoshlar Parlamenti a'zosi tomonidan qabul qilingan eng ko'p byulletenlar soni 16970 tani tashkil etdi.

5. Ta'lim va targ'ibot xizmatlari

Hozirgi kunda parlamentlar alohida deputatlarning ishlarini takomillashtirish va parlament instituti nomidan yoshlarning ishtirok etish harakatlariga rahbarlik qilish uchun ta'lim va targ'ibot xizmatlarini tashkil etmoqda. Ushbu harakatlar odamlarni parlamentning roli va faoliyati to'g'risida xabardor qilishga va parlament faoliyati va jarayonlariga jalb qilish uchun amalga oshiriladi.

Parlament yoshlar bilan ishlashning turli usullarini tanlashi mumkin. Parlament haqida xabardorlikni oshirish va ishtirok etishni rag'batlantirish uchun parlament o'z fuqarolari bilan qanday muloqot qilishiga qaramasdan, targ'bot faoliyatining asosiy printsiplari – odamlar qayerda bo'lsa o'sha yerga boorish ya'ni jismoniy, raqamli va kontseptual jihatdan harakat qilish. Odamlar bilan o'z sharoitlarida, ular uchun qulay bo'lgan joylarda, tilda va ular uchun qulay bo'lgan usullarda suhbatlashish yanada samaralidir. Har doim odamlar parlamentga kelishini va parlament shartlari bo'yicha ishtirok etishini kutmaslik kerak.

Rasmiy ta'lim sektori parlamentlar uchun odatiy boshlanish nuqtasidir. Maktablar va yoshlar bilan ishlash parlament haqida ma'lumotni manfaatdor auditoriyaga yetkazish uchun oddiy va tizimli usulni ta'minlaydi (va o'quv dasturiga materiallarni qo'shish o'qituvchilarga o'z ishlarini bajarishga yordam beradi). Siyosiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan sarmoyalar millatning kelajagiga hissa qo'shadi, bu esa parlament institutining qadr-qimmatini fuqarolar hayotiga yetkazishga yordam beradi. Yoshlarni parlamentga jalb qilishning odatiy dasturlari quyidagilardan iborat:

O'quv dasturlari

Maktab o'qituvchilari uchun ta'lim resurslari- o'quv dasturlari bilan bog'liq bo'lib, nafaqat fuqarolik va siyosat masalalarini qamrab oladi, balki aloqalarni o'rnatadi (bosma va onlayn ta'lim resurslari, dars rejalari, o'yinlar, tadbirlar).

Maktab o'quvchilarning parlamentga tashrif buyurishi - ideal holda maxsus o'quv markazi tashkil etilgan bo'lib, u yerda maktab o'quvchilari olgan bilimlarini mustaxkamlash va o'z deputatlari bilan uchrashishlari mumkin.

Maktablarda targ'ibot sessiyalari va majlislar - onlayn seminarlar, va a parlament a'zolari bilan sessiyalar, virtual sayohatlar va parlament a'zolari maktabga tashrif buyurganlarida qo'llaniladigan resurslar.

O'qituvchilarni siyosiy savodxonligini oshirish va davom etayotgan professional tarmoqlarni rag'batlantirish uchun o'qituvchi elchisi sxemasini tashkil etish.

Amaliyotdan misol: Buyuk Britaniya parlamentining ta'lim markazi

Muhim milliy masalalar muhokama qilinadigan va qonunlar qabul qilinadigan joyni ko'rish uchun

parlamentga tashrif buyurish kuchli ta'surot qoldiradi. Buyuk Britaniya parlamenti jamoatchilik bilan aloqalarni sezilarli darajada yaxshilashga qaror qilganda, u asosiy auditoriya yoshlar ekanligini aniqladi. Shuning uchun u maxsus ta'lim markazini yaratishga qaror qildi:

- Parlament ishiga mos keladigan ta'lim olish uchun mo'ljallangan yuqori sifatli professional markaz.
- Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun sharoitlar va binolarning sezilarli darajada o'shishi, yiliga 100 000 yoshlarga qadar dars berish mumkinligi va bu avvalgidan ancha katta ko'rsatkichdir.
- Maktab o'quvchilari o'quv joyida tushlik qilishlari mumkin bo'lganligi, uzoqdan kelgan maktab o'quvchilari uchun qulaylik.
- Oilalar va kyoshi katta o'quvchilar kabi kengroq o'quvchilar guruhlar uchun darslarni taklif qilish imkoniyati.
- San'at asarlari, arxivlar va artefaktlarni namoyish qilish uchun joy.

Afzalliklari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Yuqori sifatli, maxsus o'quv muhitida ta'lim olish uchun tashrif buyuruvchilar uchun juda yaxshi tajriba.
- Maktablarning parlamentga tashrifi uchun tobora ortib borayotgan talabini qondirish.
- Ilgari ta'lim berish uchun foydalaniladigan yig'ilish xonalari qo'mita va deputatlar tomonidan yana ishlatilishi mumkin.
- Qo'shimcha kirish eshigi.
- Qulay sharoitlar (yechinish xonalari, ichimliklar, hojatxonalar).

Parlamentning Ta'lim markazi 2015 yilda ochilgan va barcha ko'zda tutilgan imtiyozlarni etkazib bergan. Tashrif buyurgan maktab guruhlar parlament binosi bilan tanishadilar, yoshlarga mos mavzuga bag'ishlangan seminarda qatnashib, mahalliy deputatlari bilan savol-javoblarda ishtirok etadi va tashrifdan oldin va keyin beriladigan manbalarni olishadi.

Parlamentning Ta'lim markazining ochilishi.

Oliy ta'lim tizimi

Universitet dasturlari - resurslar, tashriflar, yozgi maktablar va hokazo.

Parlament tadqiqotlari modullari - siyosat kurslari bo'yicha modullarni birgalikda yaratish.

Parlamentda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish - masalan, bilim almashish, akademik stipendiyalar va parlament qo'mitalariga dalillarni taqdim etish orqali.

Jamoat va yoshlar guruhlari

Yoshlar bilan maslahatlashuv - so'rovlar va yoshlar forumlari

Seminarlar - nafaqat parlamentning qanday ishlashi bo'yicha, balki siyosat masalalarini hal qilish, kampaniyalarni o'tkazish va manfaatlarini himoya qilish qobiliyatlarini oshirish, shuningdek, fikrlarni mazmunli bildirish usullari bilan ham tanishtiradi.

Ijtimoiy media kampaniyalari - masalan, fikrlarni to'plash, parlament ishi bilan bir qatorda onlayn "parallel munozaralar"

Boshqa hamkorlik imkoniyatlari - masalan, mukofotlar berish, tanlovlar va ko'rgazmalar o'tkazish.

Amaliyotdan misol: Buyuk Britaniyaning Parlament haftaligi

Buyuk Britaniya parlamenti ta'lim va jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha ("Your UK Parliament" deb nomlangan) guruhi har yili o'tkazadigan festivalda mezbonlik qiladi.

Buyuk Britaniyaning parlamenti haftaligi demokratiya, xalq hokimiyati va ijobiy o'zgarishlarga bag'ishlangan umumxalq muhokamalarini tashkil etishga mo'ljallangan. U parlament odamlar uchun nimani anglatishini o'rganadi va ularning ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishga intiladi. Parlament haftaligi hududlarda parlament ishtirokida o'z faoliyatini tashkil etuvchi alohida guruhlar orqali o'tkaziladi. Bunda parlament jamoasi resurslarni taqdim etadi, takliflarni kiritadi, tadbirlarni muvofiqlashtiradi va reklama qiladi. Ishtirok etuvchi tashkilotlar sheriklik shartnomalarini imzolaydi va shu bilan strategik aloqalarni o'rnatadi.

Deputatlar va lordlar palatasi a'zolari ham haftalikda ishtirok etadilar va Ikkala palataning spikerlari ham faol homiy qatoriga kiradi. Deputatlar

maktab va guruhlarini o'z tumanlarida ishtirok etishga chorlaydilar. "Buyuk Britaniya parlamenti haftaligi" mukofotlari o'z jamoalarining hayotini o'zgartirgan yoki demokratiyani rivojlantirishga hissa qo'shgan tashabbuslarning misollarini nishonlash uchun tashkil etilgan. Parlament haftasi odatda noyabr oyida bo'lib o'tadi va Buyuk Britaniya yoshlar parlamentining (BBYP) Jamoatchilik Palatasidagi har yillik majlislari ham shu vaqtning o'zida o'tkaziladi. Buyuk Britaniya yoshlar parlamentini tashkil etuvchi Britaniya yoshlar kengashi (BYK) asosiy hamkor hisoblanadi. Parlament haftasi 11-dan 18-yoshda bo'lgan yoshlar uchun "Make your mark" (o'z belgingizni qoldiring) deb nomlangan har yillik saylovni targ'ib qilishga yordam beradi. Yoshlar saralash qo'mitasining hisoboti ham parlament haftaligi davomida e'lon qilinadi. Ushbu qator tadbirlar yoshlarning fikrlarini bilish va ularning ishtiroki mazmunli bo'lishini ta'minlash uchun mo'ljallangan.

<https://www.ukparliamentweek.org/en/>

6. Rejani ishlab chiqish

Siyosiy jarayonlarda parlament a'zolarining ishtirokini mustahkamlash hamda yoshlarning hamkorligini va ishtirok etishlarini qo'llab-quvatlashda parlament institutlari uchun ishtirok etish rejasini oldindan tuzib olish juda ham muhimdir. Bu siyosatchilardan talab qilinadigan vakolat bo'lsa-da, lekin parlament a'zolari uni juda ham yaxshi ishlab chiqarisha oladi va amalga oshirishadi. (parlamentning jamoatchilik bilan aloqalari hamda jamoatchilik bilan ishlash strategiyasini tuzish uchun kiritilgan elementlar ro'yxati haqida umumiy ma'lumot olish uchun Parlament va jamoatchilikning hamkorligi to'g'risidagi GPGFning Parlamentlar uchun qo'llamasini 9-soniga qarang).

Quyidagi savollar **yoshlarning ishtirok etish strategiyasi** ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Strategiyani va unga bog'liq bo'lgan harakat rejasini ishlab chiqish sizni nimaga va nima uchun erishmoqchi bo'layotganingizni aniq tushunishingizdan boshlanadi.

- Yoshlarni jalb qilish orqali nima qilishni xohlaysiz? Strategik maqsadingiz nimadan iborat?

- Yoshlarga mutaxassislik maslahatlarini berish va ularning qarashlarini tushunish vositasini yo'lga qo'yimoqchimisiz? Yoki parlamentda ishlash imkoniyatini berish vositasinimi? Yoki asosiy maqsad siyosiy savodxonligini va unga bog'liq bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirishmi
- Strategik maqsadlar yoki yoshga bog'liq guruhlar orasida, muayyan belgilangan guruhlar orasida yoki siyosiy sohalarida muhim ustuvorliklar bormi?

Bu strategik savollarni tuzib olgandan keyin ularni amalga oshirish uchun harakat rejasi kerak bo'ladi. Resurslar chegaralangan bo'lishi mumkin; ustuvorliklarni aniq bilib oling. Quyida ustuvorliklarni bilib olish va harakat rejasini tuzish uchun yordam beradigan savollar keltirilgan:

- Fuqarolik jamiyatidagi yoshlar tashkilotlari bilan rivojlantirishingiz mumkin bo'lgan strategik hamkorlik mavjudmi?
- Hozirda yoshlar qaysi sohada faol? Ular qanday platformalardan/aloqa vositalaridan foydalanishadi?
- Yoshlar qayerdan yangiliklarni olishmoqda?
- Ularning ishonchini qozongan ta'sir kuchlari bormi?
- Stimul uyg'otishga tez yordam beradigan qandaydir muvaffaqiyatlar bormi?
- Sizning hamkorlikdagi harakatlaringiz qanchalik samarali ekanligini qanday o'lchamoqchisiz?
- Asosiy xavflar nima va ularni qanday bartaraf etmoqchisiz?

Parlamentdagi jarayon va proseduralar qiyin bo'lishi mumkin. Ko'pchilik yoshlar muommolariga o'ralashib qolishgan, lekin parlament to'g'risida bilimlarga ega emas. Shuning uchun parlament ishidagi qulayliklarni aniqlab olish juda ham foydali va bu ishtirok etishning dastlabki qadamlari bo'ladi. Ba'zi muhim savollar quyidagilardan iborat:

- Yoshlar qaysi masalalar bilan shug'ullanayotganligi haqida nimalarni bilasiz?
- Parlament oldida turgan dolzarb masalalar nima?
- Qo'mita tomonidan qanday dolzarb so'rovlar o'tkazilmoqda / rejalashtirilmoqda?
- Qaysi biri yoshlarga ko'proq e'tibor qaratadi yoki ko'proq ta'sir qiladi?
- Kelishuvning mohiyati nimadan iborat bo'lishi mumkin?

- Qanday qilib eng yaxshi sifatli natija olish mumkin: yoshlar Parlamentga kelishlari kerakmi yoki parlament a'zolari yoshlar oldiga borishlari zarurmi?

Hech qanday aniq aloqa qilish imkoniyati bo'lmagan hollarda, yoshlarni jalb qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratishga e'tiborni qaratish kerak bo'lishi mumkin.

Yoshlarni jalb qilish uchun tezkor g'oyalar

- Xalqaro yoshlar kuni har yili 12 avgustda bo'lib o'tadi. Bu yoshlarni jalb qilish uchun ajoyib imkoniyat. Buning bir misoli shundaki, parlament a'zolari yoshlar bilan parallel munozaralar olib boradilar. Bu eng dolzarb masalalar bo'yicha o'z muhokamalarini o'tkazadigan yoshlar bo'lishi mumkin, parlament a'zolari ham yoshlar bilan bir xil masalalarni muhokama qilishadi. Yoshlar parlamentda, o'z maktablarida yoki ijtimoiy tarmoqlarda munozara qilinishi mumkin. Bu yerda asosiy g'oya shundaki, yoshlar va ularning vakillari bir vaqtning o'zida bir xil suhbatni olib borishadi. Parlament a'zolari, shuningdek, yoshlar bilan o'zaro hamkorlikning muvofiqlashtirish maqsadida milliy va xalqaro kunlarni ham ko'rib chiqishi mumkin.
- Parlament a'zolari yoshlar qanday muammolarga duch kelayotganini yoki parlamentda muhokama qilinadigan masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bilish uchun o'z tumanlarida maktablarga borishlari mumkinmi?
- Logistika (masofaga) imkoniyatlariga qarab, parlament a'zolari yoshlarni munozaralarni kuzatish, boshqa tanlangan vakillar bilan uchrashish va ehtimol parlament oldida turgan masalalar bo'yicha yoshlar o'z fikrlarini bildirish uchun parlamentga kelishlarini taklif qilishi mumkin.

Ichki muloqot

Agar jamoatchilikning ishtiroki parlament uchun yangi konsepsiya bo'lsa, yoshlarni jalb qilish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga mas'ul mansabdor shaxslar ham jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha ichki ishlarni amalga oshirishi kerak. Parlament a'zolari o'zlarining saylovchilari bilan bevosita aloqalarini yahshi tushunishadi. Agar ular yana saylanishni xohlasalar, ushbu munosabatlarni saqlab qolish juda muhimligini biladilar. Deputatlar, odatda, shaxsan va partiyalari bilan

birgalikda jamoat uchun qanday ishlarni amalga oshirayotganligi haqida gapirishni juda yaxshi ko'rishad. Biroq, parlament a'zolari va parlament amaldorlari orasida parlament institutiga vakillik qilish ro'li haqida ko'pincha zaif tushuncha. Haqiqatan ham, partiya siyosati va siyosatchilar bir-birining tanqid qilishi jamoatchilikning salbiy ta'surotini kuchaytirishi va ishonch darajasini pasaytirishi mumkin.

Shu sababli, boshqa narsalar qatorida (masalan, parlamentlar o'zgaruvchan bo'lib, bir maqsadli korporatsiyalar emas, balki organizmlardir), ayniqsa, yangi yoki xavfli deb hisoblanishi mumkin bo'lgan, yoshlar bilan muloqot qilish uchun yangi strategiyani yuqori darajada qo'llab-quvvatlash juda muhimdir. Yuqori darajadagi homiyini xabardor qilib turish va uni yon tomonda saqlash kerak. Boshqaruv guruhi targ'ibot ishlarini olib borishi va siyosiy himoyani ta'minlashi mumkin. Parlamentning barcha guruhlari yoshlarni jalb qilish strategiyasiga hissa qo'shishi mumkin, ammo ular strategik maqsadlar haqida bilishlari kerak.

Mavjud resurslar

Mavjud resurslar minimal bo'lishi mumkin. Qanday bo'lmasin, ishni kichik sarmoya qilib boshlash foydali bo'lishi mumkin - "kontsepsiyani tasdiqlash" - nima ishlayotganini va nima ishlamayotganligini tekshirib olish zarur. Bu o'zgarishlar kiritish va muvaffaqiyatga erishishga imkon beradi. Kichik yutuqlar to'liq ta'siriga ega. Bir parlament qo'mitasi bilan yaqin hamkorlikda ishlashni boshlang va yoshlarning ishtiroki ularning hisobot sifatini qanday oshirayotganini namoyish eting. Muvaffaqiyat haqida gapiring va ishtirok etish qiymatini ko'rsating (ayniqsa, byudjet egalari uchun!). Va baholash haqida oldindan o'ylab ko'ring. Tadbirning qiymatini yoshlar va parlament uchun qanday qilib qo'lga kiritasiz va namoyish qiliasiz?

7. Xulosa

Mamlakat yoshlarini siyosiy ma'rifatini oshirish uchun qilingan investitsiyalar - bu mamlakat kelajagiga sarmoya qilishdir. Fuqarolarning siyosiy savodxonligini oshirish, xususan, mamlakatning siyosiy va parlament tizimlari qanday ishlashini bilish, yahshi fuqarolik jamiyatini shakllantirishga va parlamentning faoliyati sifatini oshirishga yordam beradi. Parlamentning fuqarolar bilan ishlash va hukumatni jalb qilishdagi rolini bilish ham parlament institutiga bo'lgan

ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Biroq, yoshlarning mazmunli ishtirok etishiga erishish uchun nafaqat ta'lim va bilim, balki jalb qilish va ishtirok etish ham zarur.

* **Ta'lim va bilim olish:** yoshlar millatning kelajakdagi farovonligiga ta'sir qiluvchi muhim qarorlar qabul qilinishini tushunish uchun parlament institutining ishi, roli, vazifalari va jarayonlari haqida ma'lumot tarqatish.

Bu o'z fuqarolari nomidan ishlaydigan parlamentning qadr-qimmatini va qonuniyligini aniqlashga yordam beradi.

* **Jalb qilish:** bilimdan berishdan tashqari, parlament tomonidan qabul qilingan qarorlar yoshlar va parlament o'rtasidagi o'zaro munosabatlar darajasini oshirish uchun ularning hayoti va tashvishlari bilan qanday bog'liqligini namoyish etish. Bu fuqarolarning ishonchini mustahkamlashga yordam beradi.

* **Ishtirok etish:** siyosat va qonunchilikni rivojlantirishga hissa qo'shadigan, o'z hayot tajribasi va noyob fikrlarga ega bo'lgan, ma'lumotli yoshlarni shakllantirish.

Bu **qonunchilikning sifatini** yaxshilashga yordam beradi.

Publication design by
Joe Power

gpgovernance.net
hello@gpgovernance.net

© Global Partners
Governance, 2020

